

**MAKTAB O'QUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTUR
TALABLARI ASOSIDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Radjapov Ruslanbek Sarsenovich

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

***Annotatsiya:** Maqolada asosan Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish haqida so'z boradi va ularning matn bilan ishlash ko'nikmalari analiz qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Savodxonlik, o'qish, ta'lim, hayotiy ko'nikmalar, muloqot motivatsiyasi.*

Kirish: XXI-asrda yashayotgan ekanmiz ta'lim tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ammo, bu jarayonni ilmiy-nazariy asoslarga tayangan holda, tizimli ravishda olib borish kerak. Motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash indikatorlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun fundamental tadqiqotlar olib borish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dunyoda ta'lim sifatini baholash tizimini rivojlanish tendensiyalari jadallik bilan o'zgarib bormoqda.

O'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini va hayotiy ko'nikmlarni rivojlantirish, ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish va hayot davomida o'qishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish o'ta muhim masaladir. Hozirgi vaqtda bu muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur o'rganilishi va yechim topish, ta'lim tizimining takomillashuviga va jamiyatimizning rivojiga juda katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, Respublikamizning PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi milliy ta'lim tizimi salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida

qaraladi. Hozirgi kunda respublikamizda mazkur baholash dasturiga tayyorgarlik ishlarining tashkiliy-metodik bosqichi samarali amalga oshirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish milliy ta'lim tizimini takomillashtirish uchun muhim turtki bo'lib, o'quvchilarning tayanch ko'nikmalarini rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilish va didaktik imkoniyatlarni o'rganish orqali ta'lim tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Bu o'z navbatida, ilmiy tadqiqotlar va tahliliy yondashuvlarni talab qiladi.

“Respublikamiz maktab ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy tizimni yaratish vazifalari belgilangan.”¹

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'limni takomillashtirish, milliy asoslarni mustahkamlash va jahon andozalariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimidagi sifat darajalari va yuqori maxsuldorlik ularning jahon ta'lim standartlari bilan mosligi, mamlakatimiz o'quvchilarining PIRLS, PISA xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib ijobiy natijaga erishishi, avvalo, ularning o'zlashtirgan ko'nikmalarini qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq.

Ta'lim sifatini baholashda quyidagi dasturlar o'quvchilarning umumta'lim fanlaridan bilish darajasini aniqlashga qaratilgan loyihalar: PISA, PIRLS, EGMA, EGRA, TALIS, TIMSS.

1 Artikbayeva Z.A., Jurayeva S.T. Boshlang'ich sinf matematika darslarida miqdorlarni o'rgatishning xalqaro baholash tizimidan foydalanish TDPU [Mirovaya Nauka](http://Mirovaya_Nauka). 2023-y 5-son. b/ 5-7
SJIF:5.219

Yuqoridagi loyihalar ichida PIRLS xalqaro baholash dasturi mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi loyiha bo'lganligi uchun, biz loyiha haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tmoqchimiz: PIRLS (Progressi International Reading Literacy Study) boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchilarning berilgan notanish matnni o'qish va tushunish darajasini, bilim sifatini tahlil qiluvchi xalqaro baholash dasturidir.”²

PIRLS tadqiqotlarini o'tkazish o'ziga xos tashkiliy-pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar tadqiqotning muvaffaqiyatli o'tkazilishi va natijalarning ishonchli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

PIRLS baholash dasturi doirasida o'quvchilarning o'rganish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha islohotlar strategiyasini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari va bosqichlarini loyihalash muhim ahamiyatga ega. PIRLS baholash dasturi o'quvchilarning o'rganish darajalari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarini baholaydi va taqqoslaydi. Qolaversa o'quvchilarning qanday ko'nikma yoki qanday ma'lumotlarni o'zlashtirishi past ekanligin aniqlashga yordam beradi. O'quv darajasi o'qish malakasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchilarning kitob o'qish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishni ta'lim jarayonidagi muhim vazifaga aylantiradi.

PIRLS baholash dasturi uchun topshiriqlarni yaratishda matnlar o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, yoshi, malaka darajalari va o'qish-tushunish ko'nikmalarini inobatga olgan holda tanlanadi. Milliy ta'lim tizimidagi

² A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.R.Axmedov, G.O.Tog'ayeva “O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo'llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019 yil.

adabiy topshiriqlardan ham foydalaniladi. Ushbu topshiriqlar nostandart, xilma-xil bo'lib, vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. "PIRLS baholash dasturi o'qish savodxonligini jamiyat talab qiladigan yoki shaxslar qadrlaydigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish qobiliyati sifatida belgilaydi. Yosh o'quvchilar turli matnlardan ma'no yaratishga qodir. Ular maktabda ham, kundalik hayotda ham o'quvchilar jamoalarida ishtirok etish uchun o'qish va o'rganish natijasida muloqot bilan shug'ullanadilar."³ Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati dunyo ta'lim tizimlari samaradorligini baholash va taqqoslash qobiliyatidadir. Ushbu dasturlar orqali mamlakatlar o'zlarining ta'lim tizimidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin, bu esa ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Xalqaro baholash dasturlari, shuningdek, ta'lim sohasidagi tadqiqotlar va innovatsiyalarni rag'batlantirishga yordam beradi, chunki ular o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishga imkon beradi."⁴

Xalqaro baholash dasturlari, ta'lim tizimlarining global miqyosda taqqoslanishi orqali mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim darajasini yaxshilashga olib keladi. Xalqaro baholash dasturlari, ta'lim sohasidagi siyosatchilar, ta'lim beruvchilar va ota-onalar uchun zarur ma'lumotlar ombori bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'quvchilarning

³ Obidov J. G'. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsionvariativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini joriy etishning nazariy metodologik asoslari *Илимий-методикалық журнал 2023 4/2-сан* b-36-41

⁴ A.A.Ismailov, X.R.Ahmedov, Q.A.Karimberdiyev "PISA 2018 xalqaro tadqiqotining O'qish savodxonligi qamrov doirasi" qo'llanma, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", Toshkent, 2021- yil.

muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirishda yordam beradi.

“Xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimlariga bir qator muhim ta'sirlar ko'rsatadi. Xalqaro baholash dasturlari, mamlakatlarning ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu dasturlar orqali olingan natijalar, o'quvchilarning bilim darajasini va ko'nikmalarini o'lchashga yordam beradi. Natijalar, ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro baholash dasturlari, mamlakatlar o'rtasida ta'lim tizimlarini taqqoslash imkonini beradi. Bu, mamlakatlarga o'z ta'lim tizimlaridagi muammolarni aniqlash va boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalaridan foydalanish imkonini yaratadi”. Taqqoslash orqali, mamlakatlar o'z ta'lim siyosatlarini takomillashtirishda yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Xalqaro baholash dasturlari natijalari, ta'lim siyosatidagi o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakatlar, xalqaro baholash dasturlaridan olingan ma'lumotlar asosida o'z ta'lim tizimlarini takomillashtirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqadilar. Bu, o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv dasturlarini yangilash va ta'lim resurslarini samarali taqsimlash kabi sohalarda o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro baholash dasturlari, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu dasturlar ta'lim sohasidagi global muammolarni hal qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va mamlakatlar uchun tajriba almashish uchun imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, ular o'zlarining baholashlari orqali ta'limdagi tengsizlik,

savodxonlik, matematik va ilmiy ko'nikmalarni shakllantirish kabi muhim masalalarni hal qilishadi.”⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Artikbayeva Z.A., Jurayeva S.T. Boshlang'ich sinf matematika darslarida miqdorlarni o'rgatishning xalqaro baholash tizimidan foydalanish TDPU [Мировая Наука](#). 2023-y 5-son. b/ 5-7
2. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.R.Axmedov, G.O.Tog'ayeva “O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo'llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019 yil.
3. Obidov J. G'. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsionvariativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini joriy etishning nazariymetodologik asoslari *Илимий-методикалық журнал 2023 4/2-* сан b-36-41
4. A.A.Ismailov, X.R.Ahmedov, Q.A.Karimberdiyev “PISA 2018 xalqaro tadqiqotining O'qish savodxonligi qamrov doirasi” qo'llanma, “Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi”, Toshkent, 2021- yil.

⁵ Абдиримова И.К. Лойихалаш фаолиятида хориж тажрибаси ва лойиха таълимининг асосий хусусиятлари //инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2.№ 8.